



Humans'ning Sodiqlik Dasturi doirasida o'tkaziladigan Aksiya ta'rifi

Quyida qayd etilgan Aksiya Ta'rifi (keyinchalik – Ta'rif) Humansning Sodiqlik Dasturining ajralmas qismi bo'lib, nomuayyan shaxslar doirasiga "Humans" MChJ ning taklifi hisoblanadi.

"Aloqa xizmatlaridan foydalanish evaziga Bonus" Aksiya ta'rifi

1. Aksiya to'g'risida ma'lumot

- 1.1. Ta'rif matnida bosh harf bilan qo'llanilgan so'zlar terminlar (atamalar) hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi mazkur Ta'rifda bayon qilinmagan taqdirda Humans aloqa xizmatlari ko'rsatish Shartlari va www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirilgan.
- 1.2. "Aloqa xizmatlaridan foydalanish evaziga Bonus" Aksiyasi Ishtirokchilariga qo'shimcha talablar – aksiyada Humans aloqa xizmatlari ko'rsatish Shartlarini qabul qilish orqali Humans bilan aloqa Xizmatlari ko'rsatish uchun Shartnoma tuzgan Ishtirokchilar mazkur Ta'rifning 2-bo'limida qayd etilgan harakatlarni amalga oshirganlar qatnashishi mumkin.
- 1.3. To'langan summa – Ishtirokchi tarafidan ulangan Tarif paketi va to'langan qiymat (Cheksiz Ilovalar opsiyalari paketiga ulangan, Cheksiz SMSlar opsiyalarini inobatga olib) va boshqa Xizmatlar va Tariflar bundan mustasno.
- 1.4. "Kengaytirish opsiyalari" uchun to'langan summa – Ishtirokchilar tarafidan yoqtirilgan va to'langan "100 daqiqa", "300 daqiqa", "500 daqiqa", "1 gigabayt", "2 gigabayt", "4 gigabayt" opsiyalarining faol amaldagi Tarif paketiga ulangan qiymati.
- 1.5. Aksiya o'tkazilish davri: 2021-yilning 01-oktyabrdan 2021-yilning 31-dekabrgacha.

2. Aksiya Shartlari:

- 2.1. Shaxsiy hisobidan o'tgan sutkada to'langan summa yechilgan Ishtirokchilarga har kuni quyidagi miqdorda Bonus qoshiladi:
 - Tarif paketi bo'yicha navbatdagi Hisob Davri yakun sanasidan navbatdagi Tarif paketining yoqilishiga qadar ko'pi bilan 2 sutka o'tmagan bo'lsa, to'langan summadan **13% (o'n uch foiz)**.
 - Tarif paketi bo'yicha navbatdagi Hisob Davri yakun sanasidan navbatdagi Tarif paketining yoqilishiga qadar 1 kalendar kunidan 7 kalendar kunigacha o'tgan bo'lsa, to'langan summadan **8% (sakkiz foiz)**.
 - Tarif paketi bo'yicha navbatdagi Hisob Davri yakun sanasidan navbatdagi Tarif paketining yoqilishiga qadar 7 kalendar kunidan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa, to'langan summadan **3% (uch foiz)**.
 - Agar Mijoz istalgan Tarif paketini ilk marotaba yoqtirgan bo'lsa, To'langan summadan **13% (o'n uch foiz)**.

Bonus qo'shib berilishi sutkasiga bir karra to'langan summa hisobdan yechilganidan keyin ertasi kuni amalga oshiriladi.
- 2.2. "Raqam almashtirish", "Alohida toifali raqam tanlash" yoki "Alohida toifali raqam berish", xususan, xizmat uchun muntazam to'lovlarni amalga oshirib boradigan Ishtirokchilarga uning xizmat uchun Shaxsiy hisobidan to'langan qiymatidan **5% (besh foiz)** miqdorida Bonus qoshiladi. Muvofiq xizmat to'lovi muddatidan so'ng keyingi kun sutkada bir marta Bonus qo'shib beriladi.
- 2.3. "Raqam almashtirish", "Alohida toifali raqam tanlash" yoki "Alohida toifali raqam berish", xususan, xizmat uchun muntazam to'lovlarni amalga oshirib boradigan Ishtirokchilarga uning xizmat uchun Shaxsiy hisobidan to'langan qiymatidan **5% (besh foiz)** miqdorida Bonus qoshiladi. Muvofiq xizmat to'lovi muddatidan so'ng keyingi kun sutkada bir marta Bonus qo'shib beriladi.
- 2.4. Aloqa Xizmatlarini ko'rsatish uchun Humans bilan Shartnoma tuzgan Ishtirokchilar 1000 bonus UZS miqdorida bir martalik Bonusga ega bo'ladilar. Shartnoma tuzilganining keyingi kuni Bonus qo'shib beriladi.
- 2.5. Ishtirokchi Aksiya doirasida olishi mumkin bo'lgan Bonuslar soni cheklanmagan.
- 2.6. Biror bir asosga ko'ra Ishtirokchi Tarif paketi yoki har qanday opsiya/xizmatni amaldagi muddatidan avval (Tarif paketi/ opsiya, xizmat amal qilish muddati bo'yicha Hisobot dari yakuniga qadar) o'chiradigan taqdirda qo'shib berilgan Bonus bekor qilinadi, Ishtirokchining Keshbek-hisobi shunga binoan kamayadi, bu esa Ishtirokchi Keshbek-hisobida manfiy balansga olib kelishi mumkin.